

YANG CONFERENCE.UZ 2023

O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI: 2018-2023



Карл Бенц
1885 год
Германия

Мощность:
0,9 л.с.

BIRINCHI BENZ AVTOMOBILI

Вид топлива:
бензин

Масса:
265 кг


Двигатель:
0,954 L



Тип кузова:
мотоколяска
без дверей
Число мест - 2

Компоновка:
переднемоторная,
заднеприводная

Колёсная формула:
4x2



Ширина: 1200 мм

Высота: 1400 мм

Колея задняя: 1190 мм

Колёсная база: 1450 мм

Длина: 2400 мм



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



MART
№50

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
2-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-2**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-2**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 50-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

1. Mamarasulov Ulug‘bek Umirzoqovich YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA SPORTNING FALSAFIY-ESTETIK AHAMIYATI.....	7
2. Kurbanbayeva Ulbosin Jumag‘aliyevna FALSAFADA EKOLOGIYA MASALASI.....	10



ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA SPORTNING FALSAFIY-ESTETIK AHAMIYATI

Mamarasulov Ulug‘bek Umirzoqovich

Samarqand davlat chet tillar
instituti tadqiqotchisi

E-mail: u.mamarasulov@mail.ru

Tel: +99897-398-19-17

Annotatsiya: Vatanparvarlik har bir insonda ajdodlari tomonidan qoldirilgan milliy qadriyatlarga sodiqlik, shaxsiy manfaatlardan xalq manfaatlarini ustun qo‘yish, vatani ravnaqi uchun fidokorona mehnati natijasida namoyon bo‘ladi. Ushbu fazilat insonda vatanga, millatiga nisbatan hurmat, muhabbat ko‘rinishida shakllanib, qaysi sohada faoliyat olib borishidan qat‘iy nazat mas‘uliyatli bo‘lishni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: vatan, vatanparvarlik, jismoniy madaniyat, sport, falsafa, estetika, axloq, fazilat, konsepsiya.

Har bir inson tug‘ilganidan boshlab, o‘z oilasi, qarindosh-urug‘lari va xalqi orasida o‘z-o‘ziga ulg‘ayib kamol topadi. Doimiy vaqtini birga o‘tkazib, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlod, o‘z orzu-havasi va kelajagini ham shu xalq bilan birga tasavvur qiladi. Ajdodlari tomonidan yaratilgan qadriyatlarni qabul qilib uni asrab-avaylardi. Mana shu tarzda bolaning qalbida, ota-onasi, qarindosh-urug‘i, xalqiga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘usi shakllanib boradi. Bu insonlarning hammasini bir zamin, bir hudud umumlashtirib turadi. Mana shu vatanni sevish, uning taraqqiyoti uchun fidokorona harakat shaxs ma‘naviy qadriyati – vatanparvarlik tuyg‘usidir. “Har jabhada Vatan erishgan muvaffaqiyatlardan quvonch, muvaffaqiyatsizliklardan qayg‘u hissini tuyush, Vatan bilan g‘ururlanish, uning har bir qarich yeriga, binosining har bir g‘ishtiga, qadimiy obidalariga, ilm-fan va san‘atdagi yutuqlariga mehr bilan qarash, ularni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash - bular hammasi vatanparvarlikdir.”[1] Demak haqiqiy vatanparvar “o‘z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlarini uchun jonbozlik ko‘rsatuvchi”[2] insondir.

Yoshlarni zamon talablari darajasida ta‘lim–tarbiya olishi, vatanparvar bo‘lishi, shu aziz Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o‘z kuchi, bilim va salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga etkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridandir. Ma‘lumki, mamlakatimizda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlari yoshlarimizga zamonaviy standartlar asosida ta‘lim-tarbiya berish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarning vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha davlat dasturlari, vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirish konsepsiyalari qabul qilingan, yoshlarning vatanparvarlik borasidagi tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi va davlat tomonidan moliyaviy ko‘mak beriluvchi ko‘plab jamoatchilik asosidagi faxriylar va jamoatchilik tashkilotlari tashkil etilgan. Shu bilan birga, yoshlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 140-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiya”si qabul qilindi. Konsepsiyaning 2-bob 6-bandida “Yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanligini singdirish, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudratini va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish”,[3] masalasi ko‘rib chiqilgan.

Yohlar masalasida mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligini alohida



ta'kidlash joiz. Ayniqsa, 2017 yil 30 iyun kuni Davlatimiz rahbarining “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining qurultoyidagi “Jismoniy va ma'naviy etuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir” nomli nutqidan so'ng bu sohada katta o'zgarishlar boshlab yuborildi. “Kamolot” YOIH tugatilib, “Yoshlar ittifoqi” tashkiloti tashkil etildi va nizomlari tasdiqlandi. Yurtimizda 30 iyun - Yoshlar kuni deb e'lon qilindi. Prezidentimiz ushbu nutqida “O'zbekiston yoshlar ittifoqi davlat va jamiyat uchun rahbar kadrlarni tayyorlab beradigan o'ziga xos markaz bo'lishi, zamonaviy tilda aytadigan bo'lsak, yoshlar uchun “sotsial lift” vazifasini bajarishi kerak. U bilimli, tashabbuskor va tashkilotchi, fidoyi yosh rahbarlarning kadrlar zaxirasini yaratishi kerak”, [4] deb alohida ta'kidladi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, 2017 yil 5 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi PF-5106-sonli Farmonida yangi tashkil etilgan O'zbekiston yoshlar ittifoqi mamlakat yoshlarining barcha toifa va guruhlarini qamrab olishi, ularni demokratik prinsiplar asosida birlashtirishi, uning huquqiy maqomi, asosiy maqsad va vazifalari, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni va nufuzini, obro'-e'tiborini oshirish [5] hamda tegishli imtiyozlarga alohida e'tibor qaratildi. Yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyatini shakllantirish maqsadida turli harbiy-sport musobaqalari, ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda. “Mustaqillik”, “Amir Temur”, “Jaloliddin Manguberdi” ordenlari, “Jasorat”, “Sodiq xizmatlari uchun”, “Mardlik” medallari ta'sis etildi. Ayniqsa, yoshlarda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Harbiy akademik litseylarga “Temurbeklar maktabi” nomi berilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi PQ-3160-sonli Qarori ma'naviy-ma'rifiy sohada yangicha tub burilish yasadi desak mubolag'a bo'lmaydi. SHu bilan birga, 2021 yilning 26 mart kuni “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” Prezident Qarorining qabul qilinishi ham ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish imkoniyatini bermoqda.

Bundan tashqari, 2020 yil 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasida “Mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishni kun tartibiga qo'yishini, yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo'yicha yagona ko'rsatkichlar ishlab chiqilishini, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish” [6] zarurligini ta'kidlab o'tdi. Unga ko'ra, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi “O'zbekiston yoshlari – 2025” konsepsiyasini ishlab chiqishi, unda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga etkazishning amaliy chora-tadbirlari belgilanishi zarur. Shu bois, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarini shakllantirish – o'ta sharafliligi vazifadir”. [6]

Vatanparvarlikni shakllantiruvchi axloqiy madaniyat va qadriyatlarining tahlili masalaning ontologik, gnoseologik, aksiologik, xususan, axloqiy zamonaviy konseptual yondashuvlar doirasida aniqlashni talab qiladi. Vatanparvarlik borasidagi e'tirof etilgan yondashuvlar birlashganida masalaning ob'ektiv mohiyatini bilish, vatanparvarlikni rivojlantirish va qonuniyatlarni amalga oshirish mumkin. Bu esa tadqiqotda “O'zbek xalqi milliy qahramonlarining vatanparvarlik” fenomeni hamda milliy-axloqiy idealni shakllantirishning atributlarini ochib berish imkonini berdi.

Vatanparvarlikni targ'ib qilishning texnik va texnologik vositalar imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish tizimini yo'lga qo'yishda turli jamoat tashkilotlari va tuzilmalar, madaniyat, san'at va sport sohalari bilan muntazam faoliyat olib boruvchi, qat'iy tizimga asoslangan korporativ hamkorlikni yo'lga qo'yishning nazariy asoslarini ishlab chiqish lozim.

Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda strategiyasida “Beshta muhim tashabbus” muhim rol o'ynaydi. Prezidentimiz SH. Mirziyoev raisligida 2019 yil 19 mart kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida yoshlarni ma'nan barkamol, vatanparvar qilib tarbiyalashning “zamonaviy modeli”, “Beshta muhim tashabbus” loyihasi keng jamoatchilikka tanishtirildi. Ularda yoshlarni vatanparvar qilib tarbiyalash modeli, yangicha paradigma ilgari surilgan. Xususan, ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Mashhur sportchilar vatanparvarlikning yuksak namunasi va xalqimizning millatparvarligini o'zida ifodalashining milliy g'urur va iftixorni



ko‘rsatib berishda yoshlarimiz qalbida taassurot uyg‘otadi. Vatanga bo‘lgan muhabbatning oliy ko‘rinishi va millatparvaralikni biz sport sohasida erishayotgan yutuqlarimizda yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2010. B- 271.
2. O‘zbek tilining iizohli lug‘ati. –Toshkent.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi DIN. 2014. –B. 16-17.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепция” 2018 йил 23 февралдаги 140-сонли Қарори.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Тошкент: 1-жилд, Ўзбекистон, 2018. –Б. 520.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини кўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги ПФ-5106-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 27-сон.
6. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. –Тошкент: 2020. – Б. 34.



FALSAFADA EKOLOGIYA MASALASI

Kurbanbayeva Ulbosin Jumag'aliyevna
Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti
Telefon:+998907362616
ulbosin2616@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda ekologiya, atrof-tabiiy muhitni avaylash unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish insoniyot uchun dolzarb masalalardan bo'lib hisoblanadi. Mazkur maqolada inson bilan tabiat munosabati va falsafada ekologiya tushunchasi va uning fan sifatidagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: falsafa, ekologiya, eksofiya, ekologik falsafa, inson, tabiat.

Inson tabiat bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Shuning uchun unga hurmat bilan qarashi va unga ehtiyotkor munosabatda bo'lishi zarur. Tabiatda har bir narsaning o'рни bor. Har bir jonzot va o'simlik dunyosi tabiatning muvozanatini saqlab turishga tegishli. Tabiiy muhitni muhofazalash, uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biriga aylangandir.

Inson ham jismonon ham ruhan atrof-tabiiy muhit bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. U tirik organizm sifatida o'z mavjudotligini ta'minlash uchun doimo tabiat bilan modda energiya va axborot almashib turishga majburdir. Bu degan so'z inson tabiatni tarkibiy qismi sifatida u bilan birgalikda, uni ichida mavjud bo'la oladi demakdir. Insonning tabiatga ta'siri boshqa faol bo'lmagan mavjudotlar (o'simlik va hayvonot) ta'siriga nisbatan faol va xarakteri jihatdan tubdan farq qiladi. Ya'ni inson ongi tufayli tabiatni o'z ehtiyoji va maqsadiga muvofiq tarzda o'zgartirish va moslashtirish imkoniyatiga ega.

Bundan biz inson va tabiat bu bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning munosabatlarida muvozonatni saqlash va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish eng muhim masalalardan bo'lib topiladi.

Ekologiya- (yunon.jikos- jou, uy, makon va logos ta'limot)- organizmlarning bir –biri bilan yashash sharoiti, ularning munosabatini o'rganuvchi fandır. Ekologiya atamasini birinchi bo'lib fanga 1866 yili nemis biologi E.Gekkel tomonidan kiritilgan. U o'zining “Organizmlarning umumiy morfologiyasi” va “Dunyo yaratilishining tabiiy tarixi” asarlarida birinchi bor kiritadi. Har qanday organizmning turli evolyutsiya davomida o'zining yashash sharoitiga moslashishida, noorganik tabiat va hayotning boshqa shakllari, shu sharoitda yashovchi boshqa turdagi jonzotlar bilan hamma bog'lanishlarda o'ziga kerakli ustunlikka ega bo'lishga intiladi.

Tabiatni tabiat uchun muhofaza qilishga zaruriyat yo'q. Uning faqat inson uchun muhofaza qilinishi ekologiyaning ijtimoiy mohiyatini namoyon qiladi.

Inson paydo bo'lgali u o'z navbatida hamiysha tabiat bilan chambarchas umir kechiradi. Chunki inson yashash davri davomida tabiat inom etgan resurslardan oziqlanada uning bir qismi hisoblanadi. Tabiat va jamiyat, inson munosabatlari to'g'risida qarashlar qadim zamonlardan shakllangan. Lekin insonlarning tabiatga ta'siri va unga munosabati, ishlab chiqarish va sanoatning rivojlanishi tabiatga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Bulardan kelib chiqqan holda ekologik vaziyatlarning yuzaga kelishi va ularning o'rganilishi falsafada uning yana bir yo'nashilishining shakllanishiga asos yaratdi.

“Ekosofiya”ning falsafaning muayyan, juda o'ziga xos qismi sifatida shakllanishi bir qator bosqichlarni bosib o'tdi:

- XX asming 50-yillari: ekologiyada ahvol yaxshi emasligini qayd etish;
- 60-yillar: nazariy idrok etish uchun dastlabki urinishlar;
- 70-yillar: ijtimoiy harakatlarning amaliy faoliyatining boshlanishi (“yashillar” va boshqalarning);
- 80-yillar: aniq-ravshan bayon qilingan tamoyillar asosida harakatlar amaliyotini ishlab chiqish;
- 90-yillar: global ekologik tafakkurning shakllanishi.

“Ekosofiya”ning rivojlanishiga A.Pechchei, G.Kommoner, A.King, L. Braun, D.Medouz, G.Kan, J. Forrester, E.Pestel va boshqalar salmoqli hissa qo'shdilar.

Ekologik falsafa – boshqa fanlararo va boshqa bilimlardan farq qiluvchi o'ziga xos bilim



tizimi xususiyl ilmiy ekologik nazariyalar va tushunchalar. Shuning uchun, birinchi navbatda, ekologik falsafa falsafiy mazmunga ega bo'lishi kerak va shuning uchun falsafiy bilimlar, birinchi navbatda, quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: dunyoqarash, epistemologik va ko'rib chiqilayotgan muammolarni hal qilishda uslubiy yo'nalish. Falsafa mavzusining o'ziga xos xususiyati bu tadqiqot obyektini qamrab olishning yaxlitligi va universal printsiplar va qoidalarni aniqlash, keyinchalik fanning turli sohalari ularning qo'llanilishini topadi.

Ekologik falsafa tarkibida quyidagilar bo'lishi kerak. Asosiy falsafiy muammolar: ontologik, epistemologik, mantiqiy, ijtimoiy-falsafiy, falsafiy-antropologik, aksiologik-axloqiy, estetik, diniy va boshqalar.

Fan-texnika taraqqiyoti biz yashab turgan dunyoni tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yubordi. Ekologik halokat, ayrim hududlarda qilingan taxminlarga ko'ra, oldini olib bo'lmaslik darajasida xavf tug'dirmoqda. Ammo uning tarqalishini kamaytirish, texnogen va ijtimoiy-madaniy oqibatlar shiddatini to'xtatish zarur. Buning uchun turli soha mutaxassislari o'zlarining ekologik bilimlarini oshirib, rejalashtirilayotgan ishlari bilan tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rmoqlari kerak.

Adabiyotlar:

1. Falsafa qisqacha izohli lug'at Toshkent-2004
2. M. Ahmedova. Falsafa. Toshkent-2006
3. Sabirzyanov, A.M. Situatsionniy podxod v filosofsko-ekologicheskom kontekste: Monografiya / A.M. Sabirzyanov, N.M. Soloduxo. – Kazan, 2013.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 2-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2023

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000